

**2026-2027-O'QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI AL-BERUNIY NOMIDAGI
XALQARO MAKTAB-INTERNATNING 9-SINFIGA QABUL IMTIHONI
UCHUN BIOLOGIYA FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

2026-2027-O‘QUV IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI AL-BERUNIY NOMIDAGI XALQARO MAKTAB-INTERNATINING 9-SINFIGA QABUL IMTIHONI UCHUN BIOLOGIYA FANIDAN TEST SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internatining 9-sinfiga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha hujjat topshirgan nomzodlarning biologiya fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – nomzod o‘quvchilarining biologiya fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini amaldagi dasturlarda belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internatining 9-sinfiga qabul qilish bo‘yicha qarorlar asoslangan (valid) bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-86-son Farmoni.

2. Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internati Kuzatuv kengashi yig‘ilishining 2026-yil 21-yanvardagi 8-son bayoni asosida tasdiqlangan “Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internatiga o‘quvchilarni saralab olish va qabul qilish bo‘yicha tartib”.

3. Biologiya fanidan umumiy o‘rta ta’limning 5 – 8-sinflar uchun amaldagi o‘quv dasturi.

III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab internatining **9-sinfiga** o‘qishga qabul sinovi **2 bosqichda** amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda o‘quvchilarning biologiya fanini bilish darajasini aniqlash uchun jami **15 ta** yopiq test topshirig‘i, ikkinchi bosqichida esa

3 ta yozma topshiriq taqdim etiladi. Birinchi bosqichdagi topshiriqlarni bajarish uchun 40 daqiqa, ikkinchi bosqichda esa 30 daqiqa vaqt ajratilgan. Test topshiriqlarining mazmun sohasi, baholanadigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvallarda aks etgan:

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
I. Tirik organizmlarning xilma-xilligi va tasnifi		
1. Tirik organizmlarning xilma-xilligi va tasnifi	Tirik organizmlarning asosiy guruhlarini taniydi, ularning umumiy va farqli belgilari hamda tasniflash mezonlarini aniqlaydi	1
II. Tiriklikning molekula va hujayra darajasi		
2. Tiriklikning molekula va hujayra darajasi	Hujayra tuzilmalari va ularning vazifalarini tahlil qiladi, hujayra turlarini taqqoslaydi, bajaradigan funksiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni misollar asosida tushuntiradi.	1
III. Hujayraning kimyoviy tarkibi		
3. Hayotiy jarayonlarning kimyoviy asoslari	Biomolekulalarning tuzilishi va xossalarini tahlil qiladi, ularning biologik vazifalarini taqqoslaydi va hujayra jarayonlari bilan bog'laydi.	1
4. Biomolekulalar tuzilishi va biologik roli	Moddalar va energiya almashinuvi jarayonlarini tahlil qiladi, anabolizm va katabolizmni taqqoslaydi hamda energiya almashinuvi bosqichlarini bog'laydi.	1
5. Moddalar va energiya almashinuvi	Fotosintez va nafas olish jarayonlarini tahlil qiladi, ularni o'zaro taqqoslaydi va energiya almashinuvidagi rolini tushuntiradi	1
6. Fotosintez va nafas olish jarayonlari	O'simliklarda moddalar transporti va oziqlanish jarayonlarini taniydi hamda ildiz, poya va bargning bu jarayonlardagi vazifasini aniqlaydi.	1
IV. Organ, organlar sistemasi		
7. O'simliklarda moddalar transporti va oziqlanish	O'simliklarda moddalar transporti va oziqlanish jarayonlarini taniydi hamda ildiz, poya va bargning bu jarayonlardagi vazifasini aniqlaydi.	1
8. Hayvonlar va odamda oziqlanish va ovqat hazm qilish	Ratsional ovqatlanishning ovqat hazm qilish va organizm salomatligiga ta'sirini baholaydi va sog'lom ovqatlanish bo'yicha ilmiy xulosa chiqaradi.	1

9. Nafas olish va qon aylanish tizimlari	Nafas olish va qon aylanish tizimlarining samaradorligini baholaydi hamda tashqi omillarning organizm faoliyatiga ta'siri bo'yicha ilmiy xulosa chiqaradi.	1
10. Ajratish (ekskretsiya) va ichki muhit barqarorligi	Ajratish organlari faoliyatini tahlil qiladi, ajratish jarayonining ichki muhit barqarorligini saqlashdagi rolini tushuntiradi	1
11. Harakatlanish va tayanch-harakat sistemasi	Tayanch-harakat sistemasining asosiy qismlarini biladi, ularning tuzilishi va vazifalarini aniqlaydi hamda harakatlanish jarayonidagi rolini tushuntiradi.	1
12. Koordinatsiya va o'z-o'zini boshqarish	Nerv va gumoral boshqaruv jarayonlarini tahlil qiladi, ularning o'zaro bog'liqligini tushuntiradi hamda reflekslar faoliyatini izohlaydi.	1
13. Sezgi organlari va oliy nerv faoliyati	Sezgi organlari va faoliyatini tahlil qiladi, sezish va javob reaksiyalari o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiradi.	1
V. Ko'payish va rivojlanish		
14. Reproduksiya, o'sish va individual rivojlanish	Ko'payish turlari va individual rivojlanish bosqichlarini tahlil qiladi, ularni o'zaro taqqoslaydi va biologik jarayonlar bilan bog'laydi.	1
VI. Tur, populyatsiya, ekosistema va biosfera		
15. Tur, populyatsiya, ekosistema va biosfera	Tur, populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalarini tahlil qiladi, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntiradi.	1
Jami		15 ta

IV. Kognitiv ko'nikmalar bo'yicha taqsimot

Topshiriqlar uchun belgilangan ballar ularning murakkablik darajasini, bajarishda talab etiladigan bilim, ko'nikma va mantiqiy fikrlash hajmini hisobga olgan holda belgilangan.

Test topshiriqlarining kognitiv ko'nikmalar va baholash mezoni bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Kognitiv daraja (topshiriq toifasi)	Izohi	Testlar soni (ta)
Bilish (A)	Reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni o'quvchilar tomonidan o'quv materiali qayta ishlanmasdan, ularning xotira qobiliyatini aniqlovchi, qonuniyatlar, xossalari, formula, tushuncha va atamalarning mohiyatini bilish, yodda saqlash va tanish, odatiy vaziyatlarda qo'llashga qaratilgan	3
Qo'llash (B)	Produktiv o'quv topshiriqlarining o'quvchilar tomonidan o'rganilgan qoidalar va formulalarni tanish vaziyatlarda qo'llashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o'quvchilar berilgan ma'lumotlar asosida sodda hisob-kitoblarni bajaradi, standart shakldagi masalalarni yechadi hamda formula yoki qoidani to'g'ridan to'g'ri qo'llaydi.	3
	Produktiv o'quv topshiriqlari o'quvchilardan o'rganilgan qoidalar va formulalarni bir nechta bosqichdan iborat hamda qisman noodatiy vaziyatlarda ongli ravishda qo'llashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o'quvchilar masala shartini tahlil qiladi, mos yechim usulini tanlaydi, bir nechta formulalar yoki qoidalarni ketma-ket va mantiqiy bog'liqlikda qo'llaydi hamda yechim jarayonida oraliq xulosalar chiqaradi.	6
Mulohaza (C)	Intellectual darajadagi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilim, va ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo'llab, umumlashtirishni talab qiladi	3

VII. Baholash shakli

O'quvchilarning biologiyani bilish darajasi birinchi bosqichda **25,5 ball** bilan, ikkinchi bosqichda esa **15 ball** bilan baholanadi. Har bir bosqichda baholanadigan mazmun soha, kognitiv jarayonlar va baholash mezoni quyidagi jadvallarda berilgan.

Birinchi bosqichda baholanadigan mazmun soha, kognitiv jarayonlar va baholash mezon

1-jadval

Topshiriq tartib raqami	Mazmun sohasi	Topshiriq toifasi	Ball
1	Tirik organizmlarning xilma-xilligi va tasnifi	A	1,1
2	Hujayra – tirik organizmlarning tuzilish va funksional birligi	B	1,1
3	Hayotiy jarayonlarning kimyoviy asoslari	A	1,1
4	Biomolekulalar tuzilishi va biologik roli	B	1,1
5	Moddalar va energiya almashinuvi	C	2,1
6	Fotosintez va nafas olish jarayonlari	B	1,1
7	O‘simliklarda moddalar transporti va oziqlanish	B	2,1
8	Hayvonlar va odamda oziqlanish va ovqat hazm qilish	B	2,1
9	Nafas olish va qon aylanish tizimlari	C	2,1
10	Ajratish (ekskretsia) va ichki muhit barqarorligi	B	1,1
11	Harakatlanish va tayanch-harakat sistemasi	A	1,1
12	Koordinatsiya va o‘z-o‘zini boshqarish	B	2,1
13	Sezgi organlari va oliy nerv faoliyati	B	2,1
14	Reproduksiya, o‘shish va individual rivojlanish	B	1,1
15	Tur, populyatsiya, ekosistema va biosfera	C	2,1
Jami			25,5 ball

Ikkinchi bosqichda baholanadigan mazmun soha, kognitiv jarayonlar va baholash mezon

2-jadval

Topshiriq tartib raqami	Mazmun sohasi	Topshiriq toifasi	Baholash mezon
1	Hujayra, organ, organizm sistemalari va funksiyasi	B	0-3 ball
2	Tur, populyatsiya, ekosistema, biosfera	C	0-5 ball
3	Moddalar va energiya almashinuvi	C	0-7 ball
Jami			15 ball

IX. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. Biologiya 5-sinf O'.Pratov, A.To'xtayev, F.Azimova, Z.Tillayeva –Toshkent “O‘zbekiston”, 2020
2. Suyarov K. T. va boshq. Tabiiy fanlar. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
3. Biologiya. 7-sinf: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7- sinfi uchun darslik, K. Safarov, M.Umaraliyeva, Z.Tillayeva, I. Abduraxmonova, U.Raxmatov, S.Haytbayeva, M.Bo'ronboyeva 1- nashri. Toshkent: “Respublika ta'lim markazi”, 2022.
4. Biologiya. 8-sinf: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik, O.Mavlonov, T.Tilavov, Aminov 6- nashri. Toshkent: “O‘qituvchi nashriyot – Matbaa Ijodiy uyi” 2019.